




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

QO'RQUT OTA HIKOYALARIDA MIFOLOGIK AYOL OBRAZLARINING TIPOLOGIYASI

THE TYPOLOGY OF MYTHOLOGICAL FEMALE CHARACTERS IN KORKUT ATA'S STORIES

Dilbar HAYDAROVA,
TOSHDU 'TAU tayanch doktoranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZXPG3477

Annotation. *This thesis examines the study of female characters in the «Book of Dede Korkut» by Turkic and Uzbek literary critics, revealing the role of women in Turkic societies as a result of this research. Furthermore, it focuses on the role of the female characters in the work as avengers.*

Key words: *«The Book of Dede Korkut,» female characters, fairy character, female avenger, plot, episodic character*

Turkiy xalqlar uchun ayol hech qachon jamiyatning passiv a'zosi hisoblanmagan. Miloddan avvalgi davrlardan yetib kelgan turkiy afsona va hikoyalarda ham ayol obrazi ona va rafika personajini ifodalash bilan birga jangchilik, donishmandlik, sadoqat kabi xususiyatlarni o'zida umumlashtiradi.

Ozarbayjon xalqining milliy merosi hisoblangan «Dada Korkut hikoyalari»da ayol obrazlarining turli qirralari F.Sumer, K.O'njul, A.Jan, E.Amirbayova, D.Yurtsever, M.Kaplan, B.O'gel ishlarida tahlilga tortilgan. Jumladan, F.Sumerning monografiyasida Dada Korkut eposi O'g'uzlarning tarixiy-madaniy merosi sifatida tahlil qilinadi. Ayol obrazlari jamiyatdagi ijtimoiy va oilaviy munosabatlar va qahramonlik an'analari bilan bog'liq holda izohlanadi [Sumer, 1999].

K.O'njul ishida ayollar faqat uy-ro'zg'or bilan bog'liq emas, balki jangchi qahramon sifatida ham tasvirlanishi ilmiy asoslab berilgan, shuningdek, ayol obrazining epik qahramonlik an'alaridagi o'rni ko'rsatilgan [O'njul, 2008: 582-594]. Bu tipdagi ayollar ot minib jang qiladi, kamondan mohirona foydalanadi va odatda erkak qahramonni qutqaradi. Masalan, Bonu Chechak, Gulchehra, Burla xotun kabi obrazlarda qahramon ayol qiyofasini ko'rish mumkin. M.Kaplan ayrim o'rinlarda ayol obrazlarini qahramonlik va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin qiladi [Kaplan, 1998].

E.Amirbayova esa tadqiqot ishida ayollarning yetakchilik roliga e'tiborini qaratadi [Amirbayova, 2023: 55-63]. Muallif epik asarlarda ayollar ko'pincha muhim qarorlar qabul qiluvchi, maslahat beruvchi yoki qahramonni ruhlandıruvchi obraz sifatida tasvirlab, ularning faol ijtimoiy roliga urg'u beradi.

Ahmet Jan maqolasida Dada Korkut hikoyalaridagi ayol obrazlari tipologik va ijtimoiy jihatdan o'rganilgan [Jan, 2019: 1240-1246]. Muallif ayollarni turli funksional guruhlariga: ona, rafika, qahramon ayol va boshqa obrazlarga ajratadi. Shu orqali ayol obrazlarining ijtimoiy funksiyalari aniqlab, uning epik matnlardagi rolining ahamiyatini ko'rsatadi. B.O'gel «Turk mifologiyasi» asarida ona timsoli, ayol ilohalar va ayol arxetiplarini tahlil qiladi [O'gel, 2010]. Bu nazariy qarashlar Dada Korkut hikoyalaridagi ayol obrazlarining mifologik ildizlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

D.Yurtsever dissertatsiyasida Dada Korkut hikoyalarini feministik nuqtayi nazardan tahlil qiladi [Yurtsevar, 2019]. Unda ayol obrazlarining patriarxal jamiyatdagi o'rnini, erkak va ayol rollari hamda gender munosabatlarini o'rganadi.

O'zbek adabiyotshunoslari orasida B.Sarimsoqov, T.Mirzayev, M.Jo'rayev, B.To'xliyev, N.Jabborov kabi olimlar Dada Korkut hikoyalarini o'rganib, ulardagi ayol obrazlariga ham o'z munosabatlarini bayon etishgan [Sarimsoqov, 2005; Mirzayev, 2012; Jo'rayev, 2015; To'xliyev, 2018; Jabborov, 2020].

Dada Qo'rqut hikoyalaridagi ayol obrazlari garchi ikkinchi darajali personaj sifatida tasvirlanishsa-da, ularning ko'pi voqealar rivojiga keskin ta'sir qilishi bilan xarakterlanadi. Hikoyalardagi ayol obrazlarini xarakteriga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) maslahatgo'y ayol (Gulchehra);
- 2) jangari ayol (Gulchehra, Bonu Chechak, Burla xotun, Saljon xotun);
- 3) nomusli ayol (Burla xotun);
- 4) tadbirkor, uddaburon ayol (Burla xotun);
- 5) vafodor ayol (Oyqiz, Saljon xotun);
- 6) kamtar ayol (Saljon xotun);
- 7) qasoskor ayol (pari qiz);

Qo'rqut ota hikoyalaridagi ikkinchi darajali qahramonlar hisoblanuvchi ayol obrazlari o'zlarining yuqorida sanab o'tilgan xislatlari bilan erkak obrazlari bilan yonmayon turadi. Yuqorida sanab o'tilgan ishlarda asardagi ayol obrazlarining ijobiy tomonlari tilga olingan bo'lib, ayollarda uchrashi mumkin bo'lgan qasoskorlik jihatiga to'xtalib o'tilmagan. Qo'rqut ota hikoyalari jami 12 ta dostondan iborat bo'lib, ulardan biri "Basatning Tepako'zni o'ldirgani haqidagi doston" deb nomlanadi. Ayni shu dostonda pari obrazi an'anaviy yaxshilik ulashuvchi ayol sifatida emas, balki yomonlikka javob qaytara oladigan obraz sifatida gavdalanadi. Dostondagi voqealar rivojiga ko'ra O'g'uz yurtidan bo'lgan bir cho'pon nafsiga bo'ysunib pari qizga teginadi. Shunda pari qiz cho'ponga: "... yil adog'ida yonimga kel. Menda omonating bor, olib ketasan. Sen bu ishing bilan O'g'uzlarning boshiga falokat keltirding", - deb aytadi [Qo'rqut ota kitobi, 2025:116]. Pari qizning "O'g'uz elining boshiga balo orttirding" degan ogohlantirishi mifologik bashorat vazifasini bajaradi. Bu orqali pari obrazi nafaqat g'ayritabiiy bir zot, balki ayni vaqtda taqdirni oldindan ko'ra oladigan va jazodan ogoh etuvchi kuch sifatida ham namoyon bo'ladi.

Garchi pari obrazi dostonning boshidan oxiriga qadar saqlanib qolmasa-da, butun doston syujeti mana shu obraz asosiga quriladi. Dostondagi pari qiz obrazi epizodik tuyulsa-da, u "harakatlantiruvchi mifologik markaz" vazifasini o'taydi. Ya'ni syujetdagi keyingi barcha fojialar – Tepako'zning tug'ilishi, uning odamxo'rliqi, o'g'uz qabilasiga solgan tahdidi – aynan shu obraz bilan bog'liq dastlabki voqeadan kelib chiqadi. Bu esa pari obrazining kompozitsion jihatdan "kalit" ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, dostondagi pari obrazi "chegara buzilishi" motivini yuzaga keltiradi. Cho'ponning ilohiy yoki g'ayritabiiy zotga bo'lgan shahvati tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi. Turkiy mifologiyada g'ayritabiiy ayol obrazlari bilan munosabat ko'pincha sinov, taqiq yoki jazoni anglatgan. Shu bois Tepako'zning tug'ilishi shunchaki bir biologik hodisa emas, balki koinot tartibining buzilishi natijasidir.

Dostonda jamoaviy mas'uliyat g'oyasi ham o'z ifodasini topgan. Bir kishining axloqiy xatosi butun el boshiga kulfat keltiradi. Qadimgi epik tafakkurda jamiyat va shaxs

bir-biridan ajralmas, yaxlit bir butunlik sifatida qaralgan. Shu sababli cho'ponning aybi shaxsiy xato emas, balki ijtimoiy falokat sifatida talqin qilinadi.

“Qo'rqut ota kitobi”dagi dostonlar tahlil qilinarkan, ulardagi bosh obrazlarning barchasi erkaklar bo'lishiga qaramay, ayol obrazlariga ham syujet chizig'ini ushlab turuvchi muhim qahramon sifatida qarash lozimligi aniqlashadi. Dostonlardagi ayollar donishmandlik, matonat, sadoqat va jasorat timsolidir. Ular qahramon erkaklarga yo'l ko'rsatadi, qiyin vaziyatlarda ularga ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi, oilaviy va ijtimoiy qadriyatlarni saqlab qolishga ko'maklashadi. Ba'zi hollarda ularning o'zlari ham jang maydoniga chiqib, o'ch olish yoki xalq manfaatlarini himoya qilish kabi faol vazifalarni bajaradilar. Bu esa qadimgi turkiy epik tafakkurda ayol obraziga yuksak ehtirom mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Faruk Sümer. O'guzlar (Türkmenler): Tarihleri, Boy Teşkilatı, Destanları. – İstanbul: Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı, 1999. – 431 s.
2. Kürşat Öncül. Dede Korkut hikâyelerinde savaşçı kadın tipi // Turkish Studies. – 2008. – C. 3, № 2. – S. 582–594.
3. Mehmet Kaplan. Türk Edebiyatı Üzerine Araştırmalar. – İstanbul: Dergâh Yayınları, 1998. – 412 s.
4. Elvina Amirbayova. Dede Korkut hikâyelerinde kadınların liderlik rolü // International Journal of Language Studies. – 2023. – № 4. – S. 55–63.
5. Ahmet Can. Dede Korkut Hikâyelerinde Kadın // Journal of Social and Humanities Sciences Research. – 2019. – № 35. – S. 1240–1246.
6. Ögel B. Türk Mitolojisi: Kaynakları ve Açıklamaları ile Destanlar. 2 ciltlik. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2010. – 644 s.
7. Yurtsever D. Feminist kuramlar bağlamında Dede Korkut Kitabı'nda kadın: Dis. ... yüksek lisans. – Ankara, 2019. – 120 s.
8. To'ra Mirzayev. Turkiy xalqlar epik merosi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 2012. – №4. – B. 15–21.
9. Murodjon Jo'rayev. O'zbek folklori va turkiy epik an'ana // O'zbek tili va adabiyoti. – 2015. – №3. – B. 45–52.
10. Bahridin Sarimsoqov. Epik tafakkur va mifologik obrazlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 2005. – №2. – B. 30–37.
11. Boqijon To'xliyev. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 352 b.; Nurboy Jabborov. Turkiy adabiy meros talqini. – Toshkent: Akademyashr, 2020. – 280 b.
12. Qo'rqut ota kitobi: doston / xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025. – 116-bet.